



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 2 2025-YIL 25-FEVRAL

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

Ayol borki,

OLAM
MUNAVVAR



Muhtarama ayollar, munis, mo'tabar onaxonlar! Tashkent tibbiyot akademiyasining faxri bo'lmish ziyoli opa-singillar, chuqur ilmiy tafakkuri bilan tibbiyot ravnaqiga munosib hissa qo'shish niyatida o'qib, o'rganayotgan, izlanayotgan talaba qizlar!

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan bahor bayrami hamda Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin dildan samimiy tabriklayman.

Ayollari qadr topib, oilalar e'zozda bo'lgan shunday muazzam yurtning sizday muhtaramalariga samimiy tilaklarimni bildirayotganimdan mamnunman.

Ayol deganda ko'z o'ngimizda eng avvalo mehridaryo Onalarimizning munis siyosi

gavdalanadi. Onalarning qadr-qimmatini sira minnat bilmas bag'rikengligi va oliyanobligi bilan o'lchanadi. Yuzidan tabassumi arimagan, farzandlari baxtu kamolini har qanday ne'matdan ustun bilgan aziz ayollarimiz bugun milliy tibbiy ta'lim rivojiga o'z hissasini qo'shayotganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Fursatdan foydalanib Tashkent tibbiyot akademiyasining ko'p ming sonli ilmiy pedagogik jamoasi tarkibida sidqidildan mehnat qilayotgan ustoz va shogirdlarimiz, magistrlar, doktorantlar, professor va akademik ayollarimiz, shuningdek, katta ilmiy dargohda uzoq yillardan buyon faoliyat olib borayotgan xodimalar,

barcha-barchangizni chin dildan qutlayman.

Sizlarga avvalo oilaviy xotirjamlik, o'qish va kelgusi ilmiy faoliyatlaringizda ulkan zafarlar tilab qolaman.

O'zingiz singari nozik qalbingiz aslo dard chekmasin, ko'zingizni yashnatib kamol topayotgan farzandlaringiz shu elning ardog'ida bo'lsin. Xonadoningizni fayzli kunlar shukuhi hamisha bezab tursin.

Mo'tabar ayollar, aziz opa-singillar bayramingiz muborak bo'lsin!

Ehtiroim bilan

Sh.BOYMURADOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b



Dunyoda eng bebaho, ammo hamisha benazir tarqatiladigan xazina bor.

Bu – Ona mehri!

O'tkir Hoshimov



Alisher Navoiy tavalludining 584-yilligi



NAVOIY MEROSI: ADABIYOT VA MA'NAVIYAT DURDONASI

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi ulug' siymolardan biridir. U shoir, mutafakkir,

jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi hamda faylasufdir. Butun turk dunyo Alisher Navoiyini «Shams ul-millat» – millat quyoshi deb hamma davrlarda e'zoz bilan tilga oladi. Zamondoshlari uni «Nizomiddin Mir Alisher» deb ulug'laganlar.

Alisher bolalikdan ma'rifatli oila muhitida tarbiya topdi. Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad Temuriylarga yaqin amaldorlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatli kishilaridan sanalgan. Adabiyotshunos Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, u o'g'li Alisherning tarbiyasiga, kelajakda fazilatli

odam bo'lib yetishmog'i uchun astoydil harakat qilgan. Bolalik vaqtlaridayoq o'z davrining Lutfiy, Kamol Turbatiy kabi shoirlari bilan yaqindan aloqada bo'ldi. Mir Alisher 7 yoshida buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadisi shariflarini yod bilgan va g'azallar yoza boshlagan. Alisher Navoiy o'n besh-o'n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiyda ijod qiladigan "Ikki tilli" shoir sifatida tanilgan.

O'zbekcha she'rlariga «Navoiy», forscha she'rlariga «Foniy» taxallusini qo'ydi. Xalq ichida bu zotning hayoti va faoliyati bilan bog'liq rivoyat va afsonalar ham talaygina. Husayn Boyqaro hokimiyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatiga tayanib ish ko'rdi. Buyuk shoir «Amiri kabir», «Amir ul-muqarrab» unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari Hirotda obodonlik ishlari avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan, adolat

va haqiqat tug'i baland ko'tarilgan davr bo'ldi. Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizg'in va samarali shug'ullandi. U butun ijodi davomida turli janr va yo'nalishlarda salmoqli ijod qilgan, uning yaratgan adabiy merosi beqiyos.

Nasrda ham, nazmda ham yetuk asarlar yaratgan Alisher Navoiy – butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz o'zbek adabiyotining sultoni va bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqlidir.

**I.RAZIKOVA,
Allergologiya, klinik
immunologiya va hamshiralik
ishi kafedrasini mudiri, t.f.d.,
professor,
M.MIRPAYZIEVA,
shu kafedra assistenti**

Xalqaro hamkorlik

O'ZBEKISTON- MALAYZIYA BIRINCHI TA'LIM FORUMI



O'zbekiston–Malayziya birinchi ta'lim forumi doirasida ikki mamlakat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 50 dan ortiq shartnoma va memorandumlar imzolanib, ta'lim va ilm-fan sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Jumladan, qator universitetlar hamkorligida tadqiqot markazlari va

akademik dasturlar tashkil etilishi rejalashtirildi.

Tadbir ishtirokchilari Forum ikki davlatning ta'lim va ilm-fan sohalaridagi hamkorligini yanada rivojlantirib, barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishda muhim platformaga aylanishiga ishonch bildirildi.

* * *

O'zbekiston–Malayziya ta'lim forumi doirasida Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori v.v.b Shuhrat Boymuradov boshchiligidagi delegatsiya Malayziyaning INTI International Universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilinib, memorandum imzolandi.



Ayol – shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o'qiy olgan emas.



Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542-yilligi



BOBUR MIRZONING QOLDIRGAN NODIR MEROSI

T u r o n zamin tarixida q o m u s i y - ensiklopedist olimlar ko'p bo'lgan, ularning ilmiy, madaniy, ijodiy meroslarini o'rganish asnosida diniy va dunyoviy ilmlarning juda ko'p jabhalarini birvarakayiga egallagan, ular borasida boy nodir meros qoldirgan buyuk bobokalonlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Biz buyuk bobokalonlarimiz, o'tmishdoshlarimiz bilan har qancha faxr hissini tuysak arziydi. Tarixdan ma'lumki, hatto Shayboniyxon, Subxonqulixon kabi shohlar ham vaqt ajratib ilmning turli sohalarini bilan ijod bilan shug'ullangan. Bizning zamonamizda ham ana shunday ilm-fanning, ijodning bir qator sohalarini birdek egallagan qomusiy allomalar yetarlicha. Shulardan biri – tabobat va tarix fanlari doktori, professor Mirmahmud Mirshohidovich Mirsaydullayevdir.

Kardiologiya sohasida tibbiyot fanlari doktori darajasiga yetgan, har kuni yuzlab bemorlarning joniga oro kirib hayotini saqlab qolayotgan M.Mirsaydullayev faqat tibbiyot bilan qoniqibgina qolmasdan balki buyuk bobokalonimiz “Zahiriddin Muhammad Boburning kasallik tarixini o'rganishda xalq tabobati va zamonaviy meditsina asnolari” mavzusida 14.00.41 shifri ostida xalq tabobatidan fan doktorligi dissertatsiyasini 2021-yilda muvaffaqiyatli himoya qildi.

Nodir tadqiqot materiallarida ustoz Mirzo Bobur tarixiga, zafarlariga, kasallanishlari va o'limiga bog'liq bir qator tafsilotlarni zamonaviy tibbiyotdagi sud-tibbiyot ekspertizasi yutuqlarni e'tiborga olgan holda o'rganib, shoh va shoirning hayotini badiiy asarlarda

soxta yoritilganligini isbotlab bera oldi. Ushbu dissertatsiya tibbiyot tarixi faniga qo'shilgan eng katta va qimmatli to'ldirish deyish mumkin. Professor Mirmahmud Mirsaydullayev bu bilangina qanoatlanib qolmasdan balki “Axsikent” Xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasi xodimlari – Turon Fanlar akademiyasi akademiklari, filologiya fanlari doktori, professor Ne'matilla Otajonov va tarix va tabobat fanlari doktori bilan hammualliflikda “Muborak dastxatlar” ilmiy-ommabop kitobini yozib nashrdan chiqardi. Mazkur noyob ilmiy-ommabop kitobda bugungi kunda “Axsikent” Xalqaro ilmiy-tadqiqot jamoat birlashmasi a'zolari tomonidan tarix borasida olamshumul ishlar amalga oshirilib, yurtimizning olis va yaqin tarixidagi oq va qora dog'larni oydinlashtirish borasida o'nlab ilmiy, ilmiy-ommabop kitoblar chop etilayotganligi va ushbu qo'lyozma ham ana shunday noyob tarixiy manbalarni o'rganish natijasida yozilgan. Qo'lyozmalarni o'rganish asnosida Zahiriddin Muhammad Boburning saodatmand Mirzo farzandlariga yo'llagan xayrli holnomalari keltirib o'tilgan.

Risolada buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayot faoliyati davomida otasi Umarshayx Mirzodan olgan maktubi va o'z farzandlari Humoyun Mirzo, Komron Mirzolarga bitgan xat, vasiyatnoma va asarlari tahlil qilingan. Kitob tarixchi, adabiyotshunos va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan. Kitobning mas'ul muharriri, filologiya fanlari doktori, professor Nosirjon Uluqov, taqrizchilari filologiya fanlari doktori, professor Zohidjon Sodiqov, falsafa bo'yicha filologiya fanlari doktori (PhD) Shuhrat Hayitovlardir. Ustoz hali mazkur kitobning siyohi qurimasdan turib yana bir xayrli ishga qo'l urdi. “Shayx Zahiriddin Muhammad Bobur” ilmiy-ommabop

kitobni muhokamasi va nashr uchun ruxsat berilishi uchun Xalqaro Turon yozuvchilar uyushmasiga taqdim qildi.

Kitob muallifi M.Mirsaydullayev so'zga chiqib, bugungi kunda Bobur nafaqat buyuk shoh va shoir balki islom dinida yetuk fiqhshunos olim bo'lgani, ushbu monografiyada Zahiriddin Muhammad ibn Umarshayx Mirzoning islom diniga qilgan xizmatlari, ustozlari va dinimiz ravnaqi yo'lida yozgan bebaho asarlari haqida fikr almashib, kitob keng omma uchun mo'ljallanganligini aytib o'tdi.

Buyuk bobokalonlarimizning munosib vorisi va merosxo'ri professor, akademik Mirmahmud Mirsaydullayev bugungi kun ahli ilm, ahli qalamlarining orasida eng barakotli ijod qilayotgan qomusiy olimlarimizdan. Ko'hna va katta ahamiyatli Axsikent zamini borasida, tarixiy shaxslar, fотиhlar, jahongirlar, olimlarning shaxsiyatiga oid 50 ga yaqin tarixiy kitoblar, risolalar uning qalamiga mansub. Shu bilan birga olim 40 dan ortiq tibbiyot va tabobat sohasiga oid kitoblar, 500 dan ortiq ilmiy, 1000 ga yaqin ilmiy-ommabop maqolalar muallifi, meditsina va xalq tabobati sohasida o'nlab mualliflik guvohnomasi va patentlar olgan. Xalqaro Avitsenna, Amir, Temur, Bobur Mirzo, Gippokrat ko'krak nishonlari sovrindoridir. Uning asarlari ko'p ming nusxada, o'zbek, rus, ingliz, tillarida, lotin va kirill grafikasida chop etilishi va har xonadonga baayni bir mash'al, xuddi bir mayoq kabi kirib borishi zamon talablaridan.

Alijon FAQIROV,
Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi akademigi, tabobat va tarix fanlari doktori, professor,
Qutbiddin NIZOMOV,
Turon xalq yozuvchisi,
“Abdulla Qodiriy” ko'krak nishoni sovrindori



Dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydigan ikkita mo'jiza bor. Biri – quyosh nuri, ikkinchisi – Ona mehri.



1-mart — atoqli shoira Zulfiyaxonim tavallud topgan kun



ZULFIYAXONIM – MATONATNING BUYUK TIMSOLI

bir-biridan chiroyli, muattar gullar o'stirilardi. Oiladagilar musiqani, she'rni yaxshi ko'rardi. Zulfiya oiladagi kenja farzand bo'lib, uning to'rtta akasi bor edi. Ehtimol hayotda sobitlik bilan har qanday qiyinchiliklarga bo'yin egmasdan, kurasha oladigan inson sifatida shakllanishida oilasi va akalarining tarbiyasi katta ahamiyat kasb etgandir.

Zulfiyaxonimning she'riyat, badiiy adabiyot ya'ni san'atga kirib kelishi va hozirgi unutilmas mavqega ega bo'lishida onasining o'rni

beqiyos. Buni shoiraning o'zi ham quyidagi satrlar orqali ta'kidlab o'tgan: «Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lsa, uning chashmasi – onam. Agar adabiyot ahliga bir kaft yanglig' she'riy hosil tutgan bo'lsam, uning urug'ini qalbiga avval onam sochganlar».

Uning «Men ish qizi» nomli birinchi she'ri 1931-yil 17-iyulda «Ishchi» gazetasida bosilib chiqadi. 1932-yil 17 yoshni qarshi olganida, uning «Hayot varaqalari» nomli ilk she'riy to'plami, so'ngra she'rlari, dostonlari va hikoyalari e'tirof qilinib, turli nashrlarda alohida kitoblar ko'rinishida chop etila boshlandi. Zulfiya she'rlarining xalqchilligi, sodda va chuqur ma'no-mazmunga ega ekanligi uning muxlislari e'tibori, mehrini qozondi. Zero, shoira samimiylik va soddalik, o'zbek xalqiga xos mehr-muhabbat tuyg'ularini mahorat bilan tasvirlay olgani hech birimizga sir emas. Shoira men uchun bahor malikasi kabi, go'yoki Zulfiya she'rlari va bahor fasli uning ajib tarovati birgalikda ajratib bo'lmas go'zallik, bahor havosi kabi yoqimlilikni

baxsh etadi. Zero, Zulfiyaxonim sevimli turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan erta ayriladi. Aynan ana shu ayriliq azobi, qalbdagi kemtiklik, sog'inch hissi shoiraning barcha she'rlarida sezilib turadi. Ammo shunday og'ir yuk ham o'zbekning matonatli shoirasi qaddini buka olmadi. Shoira endi nafaqat o'zi balki Hamid Olimjon qalamini ham, o'z qo'lga olishga ahd qildi. Ikki inson uchun tinmasdan ijod qildi. Turmush o'rtog'i Hamid Olimjon xotirasiga atab she'rlar, ocherklar yozdi. Zulfiya Isroilovanning «Bahor keldi seni so'roqlab» she'ri umr yo'ldoshining porloq xotirasiga atab yozgan asarlardan. Ushbu she'r ajoyib tashbehtar bilan Hamid Olimjon xotirasi, uning o'chmas hayotiga Zulfiya tomonidan bitilgan dil so'zlari, qalb alamlari va kechinmalarining, sog'inch hissining yorqin ifodasi.

O'zbek shoirlari orasida zabardast, matonatli, vafoli yor, mehribon ona timsolini mahorat bilan gavdalandirgan Zulfiyaxonim ijodi, hayoti va kechinmalari har birimizning qalbimizdan chuqur joy olgan va ularga bo'lgan mehr, oshuftalik hissi har bir o'zbek qizning yuraklarida abadiyga muhrlanib qolishi aniq!

Men bir qancha xalqaro fan olimpiadalari g'olibasi, 2024-yilda esa fan sohasida erishgan yutuqlarim uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi bo'lganman. O'zbek qizi sifatida kundan-kunga davlatimiz va jamiyatimiz uchun munosib kadr bo'lishga, bugungacha o'zbek qizi, o'zbek ayoli nomini dunyoga tanitgan qahramon ayollarimiz davomchisi bo'lishga intilaman.

**Shahzoda HAKIMOVA,
TTA talabasi**

Matonat – bu aslida nima? Biz kimlarni matonatli inson deya olamiz? Ajib bir so'z, ammo zalvorli, keng mushohadali, har kimni o'ylantira oladigan, kerak bo'lsa qalblarni junbishga keltirishga qodir bo'lgan so'z.

Shunday matonat sohiblaridan biri o'zbek qizlarining sevimli onasi, ibrat timsoli, o'rnak maktabi bo'la olgan, sadoqat va vafo kuyini butun hayoti davomida baralla chala olgan shoira Zulfiyaxonimdir. Darhaqiqat, Zulfiyaxonim har bir o'zbek qizining ibrat olishga arzigulik namuna maktabi desam mubolag'a bo'lmaydi. Zulfiyaxonim hayoti va ijodi haqida fikr yuritar ekanman xayolimni ajib bir hislar chulg'ab oladi. Bu sabr-qanoat, bardosh va Vatanga muhabbat, oila, farzandlarga mehr, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat kabi tuyg'ulardir.

Matonat timsoli bo'lgan Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkentda tug'ilgan. Otasi Isroil Muslimov zahmatkash temirchi edi, onasi Hadicha opa esa juda ko'p qo'shiq, ertak, afsona va dostonlarni bilar va bolalariga aytib berardi. Hovli mo'jazgina bo'lsa-da, unda



*Yig'lab turgan go'dakning
begonasi bo'lmaydi.*



1-mart — atoqli shoira Zulfiyaxonim tavallud topgan kun

ZULFIYAXONIM HAYOTIGA BIR NAZAR

Hayotim davomida sevimli shoirani doim o'rganaman. Chunki uni ayol sifatidagi sadoqati, matonati va she'riyatdagi mahorati men uchun qadrlidi.

Sadoqat kerak bo'lsa undan o'rganish kerak. Zulfiyani ta'riflashdan men yiroqman balki shoirani yaxshi bilmasman hali. Lekin menda ishtiyoq uyg'ondi. Inson hayotini mazmun-mohiyatini hayoti misolida ham so'zi misolida ham isbotlab bera olgan inson.

Ona Vatanimizda she'riyat yulduzi va sadoqat timsoli bo'lmish Zulfiya Isroilova – taniqli va iqtidorli o'zbek shoirasi. Hamid Olimjon va Zulfiya XX-asr o'zbek she'riyatining yorqin yulduzlaridan biridir. Ular bir oila bo'lib, o'zbek adabiyotini, o'zbek she'riyatini yuksaklarga ko'targan va o'zbek adabiyotida o'z o'rniga, ovozigaga ega bo'lgan ijodkorlar edi. Iste'dod sohibi bo'lgan shoira o'z eliga sidqidildan xizmat qilish barobarida salmoqli asarlari bilan o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi. Zulfiyaxonim yorqin rassom, oddiy inson qalbini o'tkir his qilgan – mehnatkash, Sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol.

Zulfiyaxonim Isroilova 1915-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935-1938-yillarda O'zbekiston fanlar akademiyasining til va adabiyot instituti



aspiranturasida o'qigan. Shundan keyin turli nashriyotlarda ishlagan. Zulfiya she'riyati ana shunday pokiza buloqlardan suv ichgan ijoddir. Ayni shu sababdan uning tinchlik haqidagi, tabiatning ajib bir holati borasidagi she'rlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Shu bois shoiraning barcha ayollarga, barcha onalarga, tushunarli bo'lgan she'riyati aslo eskirmaydi. Zulfiya she'rlarida tasvir etilayotgan hayot ko'lami kengayib, ijodiga xorijiy xalqlar hayoti manzaralari ham kirib keldi. Zulfiya she'riyati tabiatga hamda uning ajralmas qismi va yuqori cho'qqisi bo'lmish odamzodga nisbatan hayajonli sevgi bilan burkangan. Uning she'rlarida

tabiat och ranglarda, yorqin bo'yoq va timsollarda gavdalanadi. Zulfiyaning oliyjanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Iqtidorli shoira va yozuvchi, inson qalb tug'yonlarini o'tkir bilimdoni bo'lib, turli janrlarda asarlar yaratgan.

Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha oliyjanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Shoiraning ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX-asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar yetishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yulduzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Negaki uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday o'zbek qalbidagi havas va faxr uyg'otadi.

Shaxrizoda XUSANOVA,
TTA talabasi

MEN HAVAS QILGAN SHOIRA

She'riyat orqali men nafaqat o'zimni tushunaman, balki atrofimdagi insonlarga ham ruhiy tasalli va madad bera olaman. Chunki so'zlar ham shifobaxsh kuchga ega.

Shunday ekan, tibbiyot va she'riyat uyg'unligi inson hayotini yanada mazmunli va boy qilishning noyob vositasidir. She'riyat olamida men havas qiladigan shoira Zulfiyaxonim ijodi biz yosh ijodkorlar uchun ilhom manbai deb ayta olaman.

Zulfiya kabi adiblarning hayot yo'li va ijodini o'rganish, nafaqat kitob sahifalarida qoladigan, balki amalda ham yordam bera oladigan ruhiy kuchni beradi, deb hisoblayman. Inson salomatligini asrashda shifokor qanday mashaqqatli yo'ldan o'tsa, Zulfiya o'z asarlarida inson ruhining tubidagi dardlarni, tuyg'ularni ifodalashda shuncha ter to'kkan. U bizni o'zligimizni anglashga, hayotimizdagi qadriyatlarga jiddiy e'tibor berishga chorlaydi.

ZULFIYAXONIMGA

*Nazm olamida so'nmagan yulduz,
Yurakni yaratgan bahor kuychisi.
O'zbeгим dilbandi, o'zbeгим qizi,
Qalblarning bahori Zulfiyaxonim.*

*Vafoda, hayoda yakka malika,
Yurakda yashagay manqu hamisha.
Farzandlarin sevgan mushtipar ona,
Ko'ngilning kuychisi Zulfiyaxonim.*

*Bahorlar kelimoqda, o'riklar gullab,
Sizni so'ramoqda takror va takror.
Siz sevim kuyilagan xalq bugun birdam,
O'zbeгимning faxri Zulfiyaxonim.*



Diyoira SHODMONQULOVA,
2-son davolash fakulteti 3-bosqich talabasi



**Ayol qalbi teskari magnitga o'xshaydi:
yaqinlashsang – uzoqlashadi,
uzoqlashsang – yaqinlashadi.**



Xalqaro ta'lim tajribasi

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY
TEKNOLOGIYALAR VA YANGI O'QITISH METODLARI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori Turdiquil Bobomuratov Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining maxsus o'qitish dasturi bo'yicha Finlandiya davlatida xizmat safarida bo'ldi.

Ikki hafta davom etgan mazkur tashrif borasida TTA prorektori T. Bobomuratovning fikrlari bilan qiziqdik.

– Turdiquil Akramovich O'zbekiston–Finlandiya munosabatlarida ta'lim tizimi alohidalik kasb etadi. Har bir o'quvchiga individual yordam ko'rsatilishi, talabalarning muvaffaqiyatlarini kuzatish va yordam berish uchun ta'lim jarayoniga alohida mutaxassislar jalb etilgani ko'plab davlatlar ta'lim dasturlariga singdirilmoqda.

– Ta'lim menejmenti instrumentlarini o'qitishga asoslangan Leadershipda dastlab biz guvoh bo'lgan jihat innovatsiya va texnologiyalar: Finlandiya ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar va yangi o'qitish metodlaridan foydalanishga katta e'tibor qaratiladi. Biz borqan (University of Jyväskylä) universitetida Finlandiyadagi eng qadimiy va nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, 1863-yilda tashkil etilgan. Tadqiqot va innovatsiyalar bo'yicha muhim markaz hisoblanadi. Universitetdagi ta'lim sifati, ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyatlari va xalqaro aloqalari bilan e'tiborga sazovor.

Yuaskala universiteti turli sohalarda, jumladan, ta'lim, psixologiya, sport fanlari, tabiiy va ijtimoiy fanlar, tadqiqot va innovatsiyalarning turli yo'nalishlarida ta'lim va tadqiqot olib boradi. Universitetning asosiy yo'nalishlaridan biri – ta'lim va pedagogika bo'lib, uning o'qituvchilar va tadqiqotchilari jahon miqyosida tan olingan.

– Finlandiya universitetlarida studentlar uchun qanday qo'llab-quvvatlash dasturlari va ijtimoiy xizmatlar mavjud?

– Yuaskala universiteti talabalarga ko'plab qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taklif etadi, masalan, akademik yordam, psixologiya xizmatlari, kasbiy yo'nalisdagi maslahatlar va ijtimoiy yordamlar. Studentlar

uchun talabalar hayotini boyitish uchun turli xil klublar, ishonchli muhit va turli faoliyatlar mavjud. Mazkur universitet Finlandiyada oliy ta'limni olishni xohlagan talabalar uchun ajoyib imkoniyatlar taqdim etadi. Finlandiya oliy ta'limi dasturlari jahon miqyosida mashhur. Unda ta'lim sifati yuqori va bir qator unikal xususiyatlarga ega. Shuningdek, Finlandiyada oliy ta'lim ham bepul, studentlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Mahalliy va xalqaro talabalar uchun teng imkoniyatlar mavjud. Men bu yerda studentlar akademik bilimlar bilan birga, amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar olishi, bu esa ularning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshirishiga guvoh bo'ldim.

Finlandiya universitetlari va institutlarida ilm-fan va texnologik izlanishlar muhim hisoblanadi. Bu ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar ayni kunda ta'lim sohasida jahon miqyosida e'tirof etilgan va natijalarga olib kelgan.

– Finlandiya ta'limining afzalligini nimada ko'rish mumkin?

– Yaxshi o'qituvchilar: Finlandiyadagi o'qituvchilar juda yuqori malakali bo'lib, ularning o'z ixtisosliklariga katta e'tibor qaratilgan. Ularning ta'limga bo'lgan munosabati samaradorlikni ta'minlaydi.

Finlandiyada ta'limda tenglik tushunchasi bor. Ta'limda har kimga teng imkoniyatlar yaratiladi. Har bir o'quvchiga individual yondashuv va yordam ko'rsatiladi.

Raqobatsizlik: Finlandiyada ta'limida raqobat yoki yuqori ball talab qilinmaydi, balki hamma o'quvchilarga ularning shaxsiy muvaffaqiyatlariga erishish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Ijtimoiy integratsiya: Finlandiya ta'lim tizimi ijtimoiy integratsiyaga katta e'tibor beradi. Bu talabalarning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

O'zbekiston va Finlandiya o'rtasida ta'lim sifati oshirishga qaratilgan loyihalar va mazkur malaka oshirish qisqa tashrifdan maqsad Finlandiya tajribasini O'zbekiston ta'lim tizimiga tatbiq qilish va o'qituvchilar uchun treninglar tashkil etishdan iborat.

Suhbatni TTA matbuot kotibi Gulchehra MIRZAYEVA yozib oldi

Faxrimiz

YILNING ENG FAOL
TALABASI

Oliy ta'lim muassasalari talabao'yoshlari o'rtasida o'tkazilgan "Yilning eng faol talabasi" ko'rik-tanlovining respublika bosqichida "Yilning eng faol ixtirochi-innovator talabasi" nominatsiyasi



bo'yicha akademiyamizning iqtidorli talabasi Kurbonkulov Asqarali Alisher o'g'li faxrli 2-o'rinni egalladi!

Ilm va innovatsiya sari intilish, izlanish va kashfiyotga bo'lgan cheksiz ishtiyoq – bu muvaffaqiyatning eng muhim omillaridan biridir. Kurbonkulov Asqarali Alisher o'g'li ilm-fan sohasida, xususan, innovatsion va ixtirochilik yo'nalishida o'zining kuchli potensialini namoyon etib, yuksak natijaga erishdi.

Bu g'alaba faqat shaxsiy yutuq emas, balki Toshkent tibbiyot akademiyasining ilmiy salohiyati va yosh olimlari imkoniyatining yorqin isboti hamdir!

Toshkent tibbiyot akademiyasi iqtidorli talabalarining yutuqlari bizni doimo ilhomlantiradi! Ilm-fan yo'lida sobitqadam bo'ling, yangi yutuqlarga erishing! Biz siz bilan faxrlanamiz!

YANGI KITOB

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida professori Sherzod Zokirxo'jayev va dotsent Malika Tolibjonova tomonidan xorijiy fakultet talabalar uchun propedevtika fanining umumiy qismiga bag'ishlangan o'quv qo'llanma chop etildi.

«Propedeutics of Internal Diseases. General Part» qo'llanmaning asosiy maqsadi – tibbiyot sohasiga kirib kelayotgan yosh mutaxassislarni propedevtik bilimlar bilan ta'minlash va ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ayniqsa, klinik amaliyotga kirishish jarayonida bu kitob muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitobda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlar uchun batafsil ko'rsatmalar berilgan bo'lib, u talabalarga bemorni tekshirish, aniq tashxis qo'yish hamda davolashni boshlash uchun zarur bo'lgan asosiy malaka va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi.

H.MAGZUMOV,
dotsent



*Ayol kishiga avvalo Ona deb qarasak,
hammasi joy-joyiga tushadi.*



Ayol bir qo'lida beshikni, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi

KO'P YILLIK MEHNAT SAMARASI



O'z xizmat vazifasiga sadoqatli bo'lgan olim Dilorom Baxtiyarovna 1965-yil 27-iyunda Toshkent shahrida tug'ilgan.

Ustozning hayot yo'llariga nazarsoladigan

bo'lsak turli lavozimlarda faoliyat yuritganini ko'rishimiz mumkin. 1982-yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tugatib, shu yili Toshkent tibbiyot institutiga o'qishga kirdi va uni 1988-yilda imtiyozli diplom bilan tamomladi. O'z faoliyatini 1988-yilda Toshkent tibbiyot institutida "Odam anatomiyasi va OXTA" kafedrasida assistent bo'lib ishladi. 1995-yilda esa "Qandli diabet sharoitida oshqozonning subtotal rezeksiyasida o'g'on ichakning qon-tomir to'qima tuzilmalarining morfologik tavsifi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1995-2004-yillarda kafedrada katta o'qituvchi, 2005-yildan dotsent lavozimlarida ishlagan. 2018-yilda "Onada surunkali toksik gepatit sharoitida tug'ilgan avlod oshqozon va ichak qon-tomir tuzilmalarining

postnatal shakllanish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Tinimsiz harakat, ilmga bo'lgan muhabbati tufayli D.Adilbekova pedagogik faoliyati davomida tajribali, yuqori malakali pedagog va mutaxassis bo'lib yetishdi. Ustoz o'z ustida tinmay ishlaydi, muntazam ravishda kitob mutolaasiga, jamoatchilik ishlarida faol qatnashadi. Tibbiyot sohasini rivojlanishiga hissa qo'shayotgan professor D.Adilbekova 115 dan ortiq ilmiy maqolalar, shundan 25 tasi xorijiy nashrlarda, 3 ta monografiya, 8 ta o'quv va 60 ta o'quv-metodik qo'llanmalar muallifi. D.Adilbekova o'quv ishlari doirasida "Anatomiya" fanidan o'quv-uslubiy majmuasini tuzishda va yangilashda faol qatnashdi. 2022-yilda anatomiya fanini o'qitish usullaridan keng foydalangan holda "Vaziyatli masalalar to'plami", "Collected book of clinic cases and tests of anatomy" chop etgan. "Ovqat hazm tizimi anatomiyasi" mavzusidagi o'quv-uslubiy qo'llanmalar, "Markaziy nerv tizimi anatomiyasi" nomli rus, o'zbek va ingliz tillarida o'quv-qo'llanma tayyorladi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarni "Muammolarga asoslangan o'qitish", "Loyihalashtirish" va boshqa yangi interaktiv vositalardan keng foydalangan holda olib borgan.

Ilmiy ishlari doirasida D.Adilbekova tomonidan 180 dan ortiq ilmiy maqola va tezislari, 6 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya, 40 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop ettirgan. Kafedrada olib

borgan ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha respublika va xorijiy anjumanlarida ishtirok etganini alohida ta'kidlash joiz. Xalqaro va Respublika miqyosida o'tkaziladigan konferensiyalarda ishtirok etib, ma'ruzalar qildi. Bundan tashqari, 5 ta ratsionalizatorlik taklifi muallifi hisoblanadi. Uning rahbarligida 11 ta magistrlik va 3 ta nomzodlik (PhD) dissertatsiyasi himoya qilingan. Shu bilan birga 3 nafar shogirdi himoyaga tayyorlanmoqda.

Tibbiyot sohasiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ustoz oilada ham mehribon ona, nabiralarning suyukli buvijonisi. Farzandlari va nabiralari yurt korriga yaraydigan mutaxassis etib tarbiyalayotganini alohida ta'kidlash joiz.

Havas qilsa, ibrat olsa arziydigan oilaning sohibasi, ishxonada talabalarning mehribon ustoz, ilmiy rahbar, el ardoqlagan, e'zozlagan olim, fan rivojiga hissa qo'shgan professor Dilorom Adilbekova haqida qancha gapirsak kamlik qiladi.

D.Adilbekova 2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining "Ko'p yillik samarali mehnatlari hamda o'z xizmat vazifasiga bo'lgan sadoqati uchun" faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. Bir so'z bilan aytganda uning hayoti ilm yo'lidagi tinimsiz izlanishlari erishgan va erishib kelayotgan yutuqlari biz yoshlar uchun ibrat maktabidir desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Sardorjon TOSHPOLATOV,
1-son davolash ishi fakulteti talabasi


"YIL TALABASI" TANLOVI G'OLIBI

Toshkent tibbiyot akademiyasi va Qozon davlat tibbiyot universiteti (Rossiya) qo'shma ta'lim dasturi Xalqaro fakulteti "Davolash ishi" mutaxassisligi 6-kurs talabasi Ashurboyev Farruxjon Qozon shahrida o'tkazilgan "Yil Talabasi" tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi va g'oliblik diplomi, statuetka hamda pul mukofotlariga sazovor bo'ldi!

Qariyb 3 oy davom etgan ushbu tanlovning 4-bosqichidan finalgacha yetib borgan iqtidorli talabamiz o'zining bilim va iste'dodi bilan yuksak natijaga erishdi. Shuningdek, o'zbek milliy an'ana va urf-odatlarini butun dunyoga tanitishda ham munosib hissa qo'shmoqda.

– Bu muvaffaqiyatim orqali talabalarning imkoniyatlarini yanada oshirishga, o'zaro madaniyatlar almashinuvini rag'batlantirishga umid qilaman. Shuningdek, bu yutuqni barchangiz bilan – meni qo'llab-quvvatlagan do'stlarim, oilam va ustozlarim bilan baham ko'rmoqchiman. Sizning har biringizning yordamingiz uchun rahmat! Bilimga yo'l ba'zan juda uzoq va murakkab bo'lishi mumkin, – deydi Farruxjon Ashurboyev.

Talabamizni ushbu yutug'i bilan tabriklaymiz va kelgusidagi ilmiy hamda kasbiy faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!



"TALABALAR LIGASI" SHAXMAT MUSOBAQASI

Toshkent shahrida sportning shaxmat turi bo'yicha hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari talabalari o'z intellektual mahoratini sinovdan o'tkazdi.

Qizg'in va murosasiz bahslarda Toshkent tibbiyot akademiyasi Farmatsevtika, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti talabasi Samandarov Sherzod Abduazim o'g'li ajoyib natija ko'rsatib, faxrlri 2-o'rinni qo'lga kiritdi!

Yosh shaxmatchi talabamizga kelgusi o'qish va ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

TTA Matbuot xizmati

Sport

*Dunyoda Onaga qiyoslash mumkin
bo'lgan ikkita narsa bor.
Ona tili va ona Vatan.*



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUIYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI
(2025-yil fevral)**

№	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	Oftalmologiya	katta o'qituvchi
2.	Nevrologiya va tibbiy psixologiya	assistent
3.	1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi	assistent
4.	1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi	dotsent
5.	1-son ichki kasalliklar propedevtikasi	katta o'qituvchi
6.	Urologiya	assistent
2-son davolash fakulteti		
7.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	dotsent
8.	Oilaviy tibbiyotda xirurgik kasalliklari	assistent
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati, tibbiy pedagogika va surdotarjimonlik fakulteti		
9.	Oilaviy tibbiyotda bolalar kasalliklari	dotsent
10.	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari	assistent
11.	Yuz-jag' jarrohligi va stomatologiya	assistent
12.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	katta o'qituvchi
13.	2-son oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar	assistent
14.	2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ	assistent
Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti		
15.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistent
16.	Epidemiologiya	assistent
17.	Atrof-muhit gigiyenasi	dotsent
18.	Jamoat sog'liqni saqlash maktabi	assistent
Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti		
19.	Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika	assistent
20.	Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi	assistent
21.	Jamoat salomatligi va menejment	assistent
22.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	katta o'qituvchi
Malaka oshirish fakulteti		
23.	Akusherlik va ginekologiya	katta o'qituvchi
24.	1-son fakultet va gospital xirurgiya	dotsent
25.	1-son fakultet va gospital xirurgiya	katta o'qituvchi
26.	1-son fakultet va gospital xirurgiya	assistent
27.	Bolalar kasalliklari	katta o'qituvchi
Xalqaro fakultet		
28.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistent
29.	Tibbiy va biologik kimyo	assistent
30.	O'zbek va xorijiy tillar	o'qituvchi

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

**MUASSIS:
TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

**MUHARRIR
TURDIQUL
BOBOMURATOV**

**TAHRIR HAY'ATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova**

Gazeta Pentium-IV kompyuterida sahifalandi va Toshkent Tibbiyot akademiyasi RIZOGRAFda 400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun mas'ul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda 02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi